

AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATIDA “KATTA ASHULA” NI O'RGATISH METODIKASI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Farg'ona Davlat Universiteti musiqa ta'limi
va san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Mirzaqulov Mirzohidjon

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarida umuman olganda an'anaviy ijrochilik san'atidagi dolzarb muammolar qator pedagogik omillar katta ashulla ni o'quvchiga o'rgatish hususida boradi;

Kalit so'zlar: globallik; Maqom san'ati; Nor ovoz ; Patnusaki; Nasmiy; Charhiy;

Bir necha asrlar davomida shakllanib sayqal topib kelayotgan maqom san'ati butun dunyo miqyosida insoniyatning eng yorqin durdonalaridan biri deb e'tirof etildi. Bu bevosita qator omillarni ota bobolarimizdan qolgan an'analarni musiqiy me'rosimiz milliy ohanglarimizni tarannum etishga undaydi. Ayni hozir globallik tendensiyalari asosida rivojlanib yoshlarning tez sur'atda ommaviylikka ruju qo'yyatgani ‘yanada o'z millatimiz an'analariغا sodiq qolgan holda musiqa san'ati orqali yoshlar ongiga ijobiy tasir ko'rsatishga undaydi. Jumladan bu borada yurtboshimizning olib borayotgan siyosatlari sohaga bo'lgan e'tiborning yaqqol dalilidir. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017-yil 17.11 sanadagi №ПП 3391 Maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori yanada o'z ustimizda ishlab an'anaviy ijrochilik yo'nalishida yangi metodlar ustida ishlashga chorlaydi.

Bu borada qator an'anaviy ijrochilikdagi dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy yondashuvlar olib borishga qaror qildik. Hususan hammamizga ma'lum an'anaviy ijrochilik ustoz shogird an'anasiga asoslangan doimiy amaliy taqlidan bo'lib kelgan. Bugungi kunda bu andoza eskilikka qotib qolishga olib kelmoqda. O'quvchi o'zi ongli ravishda tushunib nazariy jihatdan asarni o'rganib o'zi to'laqonli his etib kuylasa qaysidir jihatdan jarayonning mohiyatiga kirib borgan bo'lardi. Soda qilib aytganda mifik

ta’limida aksariyat musiqa ta’limi nazariyaga asoslanmagan amaliy ijro bo’lib qolmoqda. Tabir joiz bo’lsa ko’cha tilida “haltura” ni yega o’rganib qolingan. Bu esa noprofessional ijrochilarni yetishib chiqishiga sabab bo’ladi. Muhim omillardan biri shu hususda ijrolarni asarlarni u cholg’u bo’ladimi aytim yo’li bo’ladimi originaliga asl ilk bor yozilgan tasmalangan variantiga murojaat qilmaslik; balki zamonaviy so’nggi yillarda yozilgan radio yoki zamonaviy tarmoqlar orqali eshitib o’rganish ijro qilinishi bu bora-bora maqomlarimizni mumtoz musiqamizni o’zgarib borishiga nola va qochirimlarni unutilishiga sabab bo’ladi. Sababi har bitta ohirgi ijrochi o’zidan nimadir qo’shami yangicha talqin qiladi. Go’yoki o’zining ovoz imkoniyati cholg’u mahoratiga ko’ra o’zining imzosini qo’yib ketgisi keladi. Shu kabi ijrolardan o’rgangan o’quvchi asl yo’llarni his etib idrok eta olmaydi. Musiqiy nazariy fanlarni o’rganayotgan mutahassiligiga bog’lab o’rgatish muhim sanaladi. Ijchi sifatida maqom solfedjioning so’nggi yillarda tadbiq etilgani biz soha vakillarini quvontiradi albatta. Lekin hali hanuz respulikamizning ba’zi joylariga milliy ohanglarni melizm navolarni solfedjio tariqasida o’rgata oladigan kadrlar yetarli emas; Ijrochilikda asarni har bitta elementlarida kitobga nota matniga murojaat etmaslik; To’g’ri bir jihatdan an’anaviy ijrochilikda nota matni to’la to’kis ahamiyat kasb etmaydi ustozlar ijrosi bor lekin shunda bo’lsada bu metodik jihatdan oqsoqlikni keltirib chiqaradi. Faqatgina audio zapis bilan cheklanmasdan nazariyotni bog’lab o’rganilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqib katta ashulani o’rgatish metodikasi orqali yechim izlashga harakat qilamiz;

Katta ashula o’zbek xalqining boy madaniyatini aks ettiradigan muhim san’at shakllaridan biridir. Uning o’rgatish jarayonida quyidagi metodik va pedagogik jihatlar alohida ahamiyatga ega: Katta ashulalar orqali avlodlar orasida madaniy merosni saqlab qolish, xalqqa xos an’analarni o’rgatish muhimdir. Bu jarayonda o’quvchilarni o’zlikni tanishga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga o’rgatish lozim. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish

Katta ashulalarni o’rgatish ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi. O’quvchilar hayotiy masalalarni musiqiy ifodalash orqali yangicha qarashlar shakllantirishi mumkin. Ashulalar orqali hissiyotlarni ifodalash va ta’sir etish

imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa o'quvchilarni emotsional jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa darslari davomida o'qituvchilar o'zining pedagogik mahoratini namoyish etishlari zarur. Ashulani organik ravishda o'rgatish, o'quvchilarga qiziqarli va samarali bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Katta ashulalar jamoaviy o'ynash va ijro etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu orqali o'quvchilar bir-biri bilan muloqotda bo'lish, hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'qitish jarayonida astoydil qiziqarli va ko'ngilochar tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilarda katta ashulaga qiziqishni oshirish mumkin.

Katta ashulani o'rgatish orqali nafaqat musiqiy ma'lumotlar beriladi, balki o'quvchilarni kamol toptirish va madaniy identifikatsiyasini kuchaytirishga ham katta hissa qo'shiladi.

Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari misolida oladigan bo'lsak Katta ashulla o'rgatish bir muncha murakkab jarayon. Odatda (11sinf) bitiruvchi sinflarga o'rgatiladi. Negaki katta ashullani o'rgatishda va o'rganishda katta mahorat talab qilinadi. Diapazon jihatdan baland keng va tehnik mahoratga ega bo'lish talab etiladi. Tanlangan o'quvchida eshitish qobiliyatining kuchliligi ovozlarining egiluvchanligi muhim sanaladi. Dastlab ovoz sozlash mashqlari melizm nolalar bilan qochirimlar orqali katta ashulla aytimlariga rostlanadi. Asl tasma yozuvlari orqali har bir jumlesi eshittirilib taqlidan o'quvchiga kuylab yetkazib beriladi. Avvalo asar ijrochisi va keltirilgan g'azalni mohiyatini o'quvchiga tushuntirib beriladi. Ijro aorasiga kiritilib asarni qayta qayta eshittirib his qildiriladi. Taqlidan aytilgandan so'ng bir nechta ijrolar ko'rib chiqiladi va mulohaza qilinadi. Ustoz bilan maslahatlashilib bir necha hofizlarning ijrosini talqin qilingach asllikka ko'chiriladi. Odatda o'quvchilarning ijro imkoniyati har xil bo'ladi bu esa pedagogdan katta metodik ko'mak talab qilinadi. Jarayonda turli melizmlar bo'lib diapazon jihatdan o'quvchida qiyinchilik tug'dirishi mumkin bu holatda o'qituvchi o'quvchiga mos holda nola ishlab berishi maqsadga muvofikdir. An'anaviy ijrochilikda ovoz turlari bir nechtadir: Nor ovoz; Tik ovoz(jarangdor ovoz); Jarangdor quvnoq ovoz; Quyuq tik ovoz (jarangsiz ovoz); Bo'zak ovoz ; Pang ovoz; Ishkami ovoz ; Ba'zi hollarda psihologik jarayonlarga ham duch kelinadi. O'quvchining eshtish qobiliyati yaxshi asarni

tez ilib oladi lekin pang ovozda bo'lib odatda bunday holatda katta ashulani tanishtirish va his ettirish uchun ham olish mumkin. Odatda Ma'murjon Uzoqov Jo'raxon Sultonovlarning ijrosi orqali katta ashulla ijrosi metodik qo'llanma sifatida yangraydi. Talabalar o'qish salohiyatiga ko'ra ikki xildir imkoniyati cheklangan va imkoniyat darajasida katta ashulla doatda imkiniyatidan kelib chiqib tanlanadi. Muhim jihatlaridan yana biri katta ashula patnusaki (patnis) ashula hisoblanadi. Asosi shuni talqin etadiki patnusaki ashulada intonatsion jihatdan eshitish va nola qilish uchun murakkab jarayonda o'zini ovozini ushlab turish uchun likopchalardan foydalaniladi. Ba'zi oson hislati ham borki akapella sifatida jo'rsiz ritmsiz bor qobiliyatni ishga solgan holda ijro etiladi. Odatda ochiq maydonlarda sayllarda ijro etib kelingan. "Katta Ashula" yoki "Patnis ashula" – O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi o'zbeklardan tashqari tojik, uyg'ur va turklar, shuningdek, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Qozoqistonning ayrim tumanlarida yashovchi turli millatlarning o'ziga xos madaniy hayotining bir qismi hisoblanmish, ashula kuylashning milliy turi hisoblanadi. Katta Ashula original janrda o'z ichiga teatrlashtirilgan tomosha, ashula kuylash, cholg'u musiqasi, sharq she'riyati va muqaddas marosimlarini jamlaydi.

Katta Ashula ikki va undan ortiq (besh kishigacha) ashulachilar tomonidan cholg'u asboblarning jo'rligisiz, navbat bilan kuylanadi. Ushbu kuylash turining asosiy xususiyatlaridan biri bu, improvizatsiya, umumiy ritm, yuqori ton, keng nafas, mustaqil uslub, ritm hamda so'zlarning hamohangligida kuylash hisoblanadi.

Odatda, 2—5 hamnafas ashulachi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz (qo'llariga patnis yoki likobcha ushlagan holda) aytildi. Ko'pincha yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilib, o'ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi. Katta ashula qadimiylar marosim va mehnat qushiqlari, marsiya, navha, ayolg'u qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qad. o'qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Katta ashula, odatda, katta yig'in, sayil va to'y-tomoshalarda aytilgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatomuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yo'nalishidagi she'rlar ham kuylangan. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g'azallari Katta ashula janridan alohida o'rin olgan. Xalq orasida "Do'stlar"

(Navoiy), "Ko‘p erdi", "Yolg‘iz", "Adashganman" (Muqimiy), "Oh kim, rahm aylamas" (Furqat), "Bir kelsun", "Ey, dilbari jononim" (Miskin) kabi Katta ashulalar keng tarqalgan. Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po‘lat, Vosit Sa’dulla, Nasimi, Erkin Vohidov, O‘tkir Rashid va boshqalarning she’rlari ham Katta ashulada sevib ijro etiladi.

Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar birbiriga mukammal va uzviy bog‘lanishini ta’minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo‘llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an’anaviy "ustoz-shogird" maktabini o‘tgan, she’riyat qonunlari va ijrochilik an'analariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Hofizlar, odatda, she’r bandidagi boshlang‘ich misralarning har birini galma-gal, so‘nggi misralarni jo‘r bo‘lib ijro etadilar. 20-asr ning 2-yarmida Katta ashulaning yangi ashula-cholg‘u yo‘llari, yakkaxon hofizga mo‘ljallangan turlari yuzaga keldi. Mazkur namunalarda cholg‘u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan. Katta ashulaning bu uslubi Jo‘raxon Sultonov tomonidan yaratilgan ("Ey dilbari jononim", "Ohkim", "Topmadim", "Guluzorim qani", "Mehnat axli", "O‘zbekiston" va boshqalar). Ayrim maqom sho“balari ("Bayot", "Chorgoh", "Ushshoq") ham Katta ashula ("yovvoyi maqom") uslubida aytilgan (mas, "Yovvoyi Ushshoq", "Patnusaki Chorgoh", "Likobi Bayot" va boshqalar). Mohir sozandalar Katta ashulaning cholg‘u (nay, surnay, g‘ijjak) yo‘llarini yaratdilar. Rivojlanish mobaynida Katta ashula ijrochilik (Qo‘qon, Marg‘ilon, Toshkent, Namangan — Andijon) maktablari shakllangan. Erkaqori Karimov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Haydarali Hikmatov, Meliqo‘zi Yusupov, O‘timboy Sarimsoqov, Turdiali Ergashev, Otamirza Abdurahmonov (Qo‘qon), Mamatbuva Sattorov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Boltaboy Rajabov, Ibrohim Ishokov, Musajon Orifjonov (Marg‘ilon), Orif Alimahsumov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Akbar Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov (Toshkent), Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Jo‘raxon Yusupov (Andijon), Hamroqulqori To‘raqulov (Beshariq), Rasulqori Mamadaliyev (Buvayda), Solijon Hoshimov (Quvasoy) va boshqa Katta ashula ijrochiligida shuhrat qozongan. Halima Nosirova, Munojot Yo‘lchiyeva, Ismoil va Isroil Vahobovlar, Mahmud Tojiboyev, Mahmud Yo‘ldoshevlar ham Katta ashulani mahorat

bilan ijro etmoqdalar. 1984-yildan O‘zRda Katta ashulachilarning ko‘riktanlovlari (Marg‘ilon, 1984; Toshkent, 1987; Ko‘qon, 1991; Shahrисabz, 1994) o‘tkazilmokda. Katta ashula ijrochilik yo‘llari an’anaviy mahorat maktablari (Baliqchi, Buvayda) va musiqa o‘quv yurtlari (Farg‘ona san’at bilim yurti, O‘zbekiston davlat konservatoriysi)da o‘zlashtirib kelingan. 2001-yil Andijonda 1- Respublika professional Katta ashula ijrochilar tanlovi va ilmiy-amaliy (Toshkent, Andijon) konferensiyalari o‘tkazildi. Katta ashula bastakor (F. Sodiqov, "O‘zbekiston", "To‘y muborak"; M. Murtozoyev, "Sog‘inish" va boshqalar) va kompozitorlar (V. Uspenskiy, "Lirik poema"; M. Tojiyev, 3-simfoniya; M. Bafoyev, Xalq cholg‘ulari orkestri uchun konsert; B. Umidjonov, a kapella uchun "Chorgoh")ning ijodlariga ozuqa bo‘lmoqda.

Ashula san'ati bolaning hissiy va estetik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Katta ashulalar orqali bolalarda musiqiy eshitish qobiliyati, ritm hissi va ijodkorlik rivojlanadi.

O'qituvchilarning aniq maqsadlari bo'lishi kerak;

O'qitish jarayonining bosqichlari aniqlanadi: tanlov, o'rganish, amaliyat va takrorlash. Zamonaviy texnologiyalar yordamida katta ashulalarni o'rganish jarayoni qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin.

Internet resurslari, videodarslar va ilovalar orqali o'quvchilar bilimi kengaytirish. Barcha jarayonlarni yaxlit ko'rish: o'qingan yangi nazariyani amaliy mashg'ulot bilan birlashtirish.

O'quvchilarga o'z eng yaxshi ijodkorliklarini namoyish etish imkonini berish.

Interaktiv metodlar orqali o'rganish va pedagogic yondashuvlarni o'z ichiga oladi;

Ashulanani ijro etishda ijodiy yondashuvni qo'llash. O'quvchilarni guruhga bo'lib, ular orasida musiqiy dialoglar tashkil qilish.

O'quvchilar uchun ashula ijro etishda vizual yordamlar tayyorlash (notalar, diagrammalar). Ashulaning tuzilishi, ritmi va sozlari haqida ko'proq o'rganish kerak. O'quvchilarga katta ashulalarning musiqiy strukturasini o'rganishga yordam berish. Har bir

ashula elementlarni (melodiya, harmoniyalar) alohida ko'rib chiqish. O'rgatilgan materialni muntazam ravishda takrorlash, bu esa bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Ashulalarni doimiy ravishda ijro etish va davomiy revisiya o'tkazish. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash uchun turli usullarni qo'llash.

Ijro va nazariy bilimlarni o'lchash, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash.

O'quvchilar bilan do'stona va samimiylar munosabat o'rnatish zarur.

O'qituvchilarning o'z bilim va tajribasini o'zaro muloqot orqali bo'lishish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Shukurova, D. "Musiqa ta'limida innovatsion metodlar" – O'zbekiston musiqa pedagogikasida yangi yondashuvlar.

A'zamova, F. "Ashulalarni o'rgatish metodikasi" – Katta ashulalar orqali musiqa o'quvchilari uchun dastur.

Amerikeeva, T. "Katta ashulalarni ijro etish: amaliyat va nazariya" – Musiqiy ta'limda asosiy tushuncha va metodlar.

Mamatqulova, S. "Bola ruhiyatida musiqaning roli" – Katta ashulalarni o'rganish jarayonida hissiy rivojlanish.

Karimova, L. "Ustoz va shogird: musiqada o'zaro munosabatlar" – O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalar.

Nurova, Z. "Musiqa ta'limida talabalarning motivatsiyasi" – Katta ashulani o'rgatishda motivatsiyaning o'rni.

Xodjaeva, G. "Musiqiyy kuylash va ritm" – Katta ashula va ritmik tizimlar.

Abdullayeva, B. "Ashula o'rgatishda vizual yordamlar" – Notalar va kooklar orqali o'rgatish usullari.

Raxmonov, I. "Musiqiyy improvisatsiya" – Katta ashulalarni o'rganishda ijodiy yondashuvlar.

Tashkent State Conservatory "Musical Education and Methodology" – Musiqa ta'limi va metodologiya bo'yicha tadqiqotlar.

Alimova, D. "Katta ashulalarda tembr va ekspressivlik" – Musiqiy ifoda va hissiyotlarni oshirish.

Usmonov, R. "Musiqa va pedagogika: nazariya va amaliyot" – O'qituvchilar uchun qo'llanma.

Qodirova, M. "Ashula va uning ta'siri" – Katta ashulalarni o'qitishning psixologik mohiyati.